

**O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOIIY IQTISODIY
RIVOJLANTIRISHNING MATEMATIK VA STATISTIK TAHLILI****Sherzod Bo'riyev Axadovich**

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

shahrisabz7070@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14737198>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning statistik tahliliga bag'ishlangan. Unda hududiy rivojlanish dasturlari natijalari, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi, shuningdek, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida islohotlarning natijadorligi o'lchovlari, sohalar kesimidagi ijobiy o'zgarishlar va mavjud kamchiliklar o'rganilgan. Natijada, rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, statistik tahlil, iqtisodiy o'sish, turmush darajasi, rivojlanish strategiyalari, samaradorlik ko'rsatkichlari.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish har bir mamlakatning barqaror taraqqiyoti va aholining farovonligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu hududiy farqlanishlarni kamaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishdir. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy sohalarni qamrab oladi, balki ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi keng ko'lamli maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning barcha hududlarida iqtisodiy barqarorlikka erishish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Xususan, "Hududlarni kompleks rivojlantirish" dasturlari doirasida infratuzilma ob'ektlarini modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlar hududlarni rivojlantirish sohasidagi islohotlarning samaradorligini baholashda asosiy manba hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar orqali iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik



darajasi, aholining real daromadlari va boshqa muhim ko'rsatkichlar aniqlanadi. Statistik tahlil orqali hududiy rivojlanishdagi tendensiyalarni aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Mazkur tadqiqotda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari tahlil qilinadi. Xususan, statistik ko'rsatkichlar asosida ushbu islohotlarning samaradorligi baholanib, hududiy rivojlanish jarayonlarida duch kelinayotgan muammolar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari asosida istiqbolda islohotlarni yanada samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini o'rganish maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar va metodlar foydalanildi. Ma'lumotlar yig'ish usullari orqali birlamchi ma'lumotlar to'plab olindi. Hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida erishilgan ko'rsatkichlarni o'rganish uchun mahalliy hokimiyat organlari va statistika qo'mitalaridan yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Ikkinchi darajali ma'lumotlar yordamida esa milliy va xalqaro hisobotlar, hukumat qarorlari, rivojlanish dasturlari va boshqa ilmiy-ommabop manbalar o'rganildi. Statistik tahlil metodlari orqali deskriptiv statistika yordamida hududlar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM o'sishi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi, infratuzilma rivojlanishi)ni taqqoslash va umumiy tendensiyalarni aniqlash uchun qo'llanildi. Korrelyatsiya va regressiya tahlillardan ham foydalanildi, hududiy rivojlanish va islohotlar natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun qo'llanildi. Masalan, investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Bundan tashqari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash va o'xshash rivojlanish modellari mavjudligini aniqlashda foydalanildi. Solishtirma tahlil usuli yordamida esa turli hududlarning rivojlanish darajasini xalqaro va mintaqaviy standartlar bilan taqqoslash orqali islohotlarning muvaffaqiyat darajasi baholandi. O'zbekistonning turli viloyatlari o'rtasida rivojlanishdagi tafovutlar o'rganilib, mavjud muammolar aniqlandi. Ma'lumotlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini o'rganish orqali islohotlarning uzoq muddatli natijalari baholandi. Bu orqali islohotlarning dinamikasi aniqlanib, rivojlanish sur'atlari tahlil qilindi. Hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha mutaxassislarning fikr-mulohazalari yig'ildi va tahlil qilindi. Bu yondashuv mavjud ma'lumotlarni yanada chuqurroq anglashga yordam berdi. Eng asosiy metodlarimizdan biri bu



sifat tahlili orqali esa hududiy rivojlanish dasturlarining ijtimoiy ta'sirini aniqlash maqsadida aholining turmush darajasi va xizmatlardan foydalanish darajasidagi o'zgarishlar baholandi. Tadqiqot jarayonida ushbu usullar uyg'un ravishda qo'llanilib, islohotlarning turli aspektlari ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuvlar islohotlar samaradorligini chuqur va kompleks ravishda tahlil qilish imkonini berdi hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular ushbu sohada nazariy yondashuvlar, metodologiyalar va amaliy tajribalar haqida boy ilmiy ma'lumotlarni yaratgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari va statistik tahlillariga asoslanib, islohotlarning natijadorligi va samaradorligini baholashga e'tibor qaratilgan.

Xorijiy olimlardan Todaro, M. P. va Smith, S. C.lar o'zlarining "Economic Development" asarida iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va hududiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarni yoritgan. Ularning tadqiqotida bandlik, infratuzilma va innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ta'kidlangan.

Porter, M. E.ning "Competitive Advantage of Nations" asarida hududiy raqobatbardoshlik va klasterlar nazariyasi keng yoritilgan. Hududlarni rivojlantirishda mahalliy iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning ahamiyati alohida ta'kidlangan. P.Krugmanning iqtisodiy geografiya va hududiy rivojlanish bo'yicha ishlari iqtisodiy resurslarning joylashuvi, transport infratuzilmasi va mintaqaviy integratsiyaning ahamiyatini ochib bergan. U o'zining "Geography and Trade" kitobida hududiy farqlanishlarni kamaytirishda hukumatning faol roli muhimligini ko'rsatgan.

J. D. Sachsning "The End of Poverty" kitobida hududiy qashshoqlikni bartaraf etish uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish zarurligi asoslangan.

OECDning turli hisobotlari hududiy rivojlanish va iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda samarali yondashuvlar haqida ma'lumot beradi. Xususan, "Regions in Focus" hisobotida turli mamlakatlarning hududiy rivojlanish strategiyalari taqqoslangan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan ham ko'plab ilmiy-izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan bo'lib xususan To'raqulov M. va Akbarov A.lar hududiy iqtisodiyot masalalariga bag'ishlangan maqolalarida viloyatlar kesimida ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va investitsiyalar dinamikasini statistik tahlil



qilgan. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tomonidan har yili e'lon qilinadigan "O'zbekiston hududlari iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari" hisobotlari hududiy rivojlanishning asosiy statistik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Abdukarimov, A., va Sultonov, B.lar mahalliy iqtisodiy rivojlanishning hududiy farqlarini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Ularning ishlari kichik biznes va xususiy sektorni rivojlantirishning ijtimoiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

Tahlil va natijalar.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish bilan birga hududiy omillarga ko'proq darajada bog'liq. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy Birinchisi, resurs(moliyaviy, moddiy, mehnat)larning iste'molchilarga maqsadli

ng har bir ko'rinishini o'zaro bog'liq qator funksiyalar bilan belgilaymiz. Resurs holatidan vaqt bo'yicha hosila olsak, resurslarning tashkil qilinishi va ishlatilish farqi hosil bo'ladi va hudud resurs holatining dinamik modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$dA(t)dt=U(t)-Kt, \quad (1)$$

$U - K(t) = K_1(t) + \dots + K_n(t)$ -resurslarning vaqt birligi bo'yicha sarflanishi.

$t=U_1t+\dots+U_mt$ - resurslar joriy holatining shakllanishi; (2)

$U = U_1 + U_2 + \dots + U_m$ resurslar joriy holatining shakllanishini ifodalovchi bo'lgan $U_1, U_2, \dots, U_m$ ni boshqaruvchi ko'rsatkichlarini $(\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_m)$ bilan belgilab olamiz. Bunda hudud strategiyasining -har bir t vaqt birligidagi muqobil mezoni quyidagi ko'rinishda

$t=U_1t+\dots+U_mt$ - resurslar joriy holatining shakllanishi; (2)

$t=U_1t+\dots+U_mt$ - resurslar joriy holatining shakllanishi; (2)

$extr \rightarrow (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n), (\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_m) \quad Q(A, K(\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n), U(\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_m)), \quad (5)$

Q

$t=U_1t+\dots+U_mt$ - resurslar joriy holatining shakllanishi; (2)

U_1, U_m modelni qurishda resurslar joriy holatining tarkibiy tuzilishi ssenariysi yoki Model resurslar joriy holatining shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar (2) Modelning matematik mohiyatini talqin qilish uchun, hududning tizimli bog'liqligining dinamik modelini quyidagicha funksional ko'rinishda belgilaymiz:

$t=U_1t+\dots+U_mt$ - resurslar joriy holatining shakllanishi; (2)



bu yerda Q –maqsad funksiyasi, hududda resurslar holatini boshqarish tarkibiy tuzilishi ssenariysi yoki modelning chiqish (endogen) ko'rsatkichlari.

rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini,

Band bo'lgan iqtisodiy faol aholini hududlar miqyosida tahlil qilish muhim

- mehnat resurslarining hududlar miqyosida qay darajada joylashganligi va shunga binoan ishlab chiqarish yo'nalishlariga qanday o'zgartirishlar kiritish;

- hududlar bo'yicha ishsizlar sonini aniqlash;

miqyosida mehnat birjalarining qay ahvolda ekanligi kabi makroiqtisodiy masalalarni o'rganish uchun zarurdir. Hududlarda mehnat resurslarini hisoblash

=

A -mehnat qilish yoshidagi aholi; $N+\sigma\sigma$ -mehnatga qobiliyatli yoshda bo'lib, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan pensionerlar va 16 yoshdan kichik bo'lgan o'smirlar.

(

N

+ I

)

$\sigma\sigma$ - mehnat qilish yoshidagi, ammo xalq xo'jaligida band bo'lmagan ishga

) Mehnat resurslarining potensial o'rindoshlik darajasini hisoblash uchun

(

A

A -mehnat yoshigacha bo'lgan (1 yoshdan 16 yoshgacha) aholi salmog'i va uning o'sishini quyidagicha hisoblaymiz.

μ) bo'linadi.
$$MK = \left(\sum_{i=1}^n \sum_{y=1}^{16} A_y^i / \sum_{i=1}^n A^i * 100 \right)$$

Mehnat yoshigacha bo'lgan aholini o'sish dinamikasini quyidagi algoritim

55 yoshgacha) aholi salmog'i va o'sishini hisoblash uchun quyidagi formuladan



Mehnat yoshida bo'lgan aholini o'sish dinamikasini quyidagicha

Mehnat yoshidagi aholining barchasi ham mehnatga layoqatli bo'lmaganligi sababli, mehnatga layoqatli aholining bandlik ko'rsatkichi quyidagi algoritim

$$= \Sigma \delta \kappa / A * 1000 \quad (14).$$

Bu ko'rsatkich qanchalik 1 ga yaqinlashsa, shuncha ko'p aholi mehnatga jalb etilganligini ko'rsatadi. Mehnatga layoqatli aholining bandlik ko'rsatkichi 1 dan ajratilgach, chiqqan natija aholining qay darajada band bo'lganligini ifodalaydi.

Agarda, mehnat yoshiga yetmaganlar va nafaqa yoshidagilar soni mehnat yoshidagilar soniga bo'linsa, mehnat yoshidagi bir kishiga mehnat yoshida bo'lmaganlar qancha to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi.

) mehnat yoshidagilar soniga bo'linsa, mehnat yoshidagi har odamga nafaqa yoshidagilar qancha to'g'ri kelishi chiqadi.

=

A_{η} - mehnat yoshidan o'tgan (ayollar 55 yosh (15) yuqori (erkaklar 60 yosh) dan

E Mehnat yoshidan utgan aholini o'sish dinamikasini quyidagicha belgilab

M

B

E

$$D_{Mr} = \left(\sum_{y=1}^n \sum_{\gamma=55}^k A_{y\gamma}^i / \sum_{\gamma=55}^k A_{y\gamma}^i \right) * 100$$

$K_{\mu\lambda}$) ko'rsatkichini hisoblash uchun mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar soni mehnat yoshidagilar soniga bo'linadi.

$$q \quad K_{\mu\lambda} = \Sigma A_{\mu\alpha} / \Sigma A_{\gamma} * 1000 \quad (19)$$

$\mu = 1$ bo'lganda $j=1$; k =mehnat yoshigacha bo'lgan aholi ; $r=2$ bo'lganda $j=17$; k =mehnat yoshida bo'lgan aholi; $r = 3$ bo'lganda $j=55$; k = mehnat yoshidan o'tgan

i

A

μ

bo'lgan aholi soni; K_{η} - nafaqa yoshidagilar darajasi; A_{η} -nafaqa yoshidagilar soni; M_{η} - mehnat resurslari -bu jamiyatdagi mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir.

$$M_{\eta} = \left(\sum_{y=1}^n \sum_{\gamma=55}^k A_{y\gamma}^i / \sum_{\gamma=55}^k A_{y\gamma}^i \right) * 100$$

Ularining asosiy qismini mehnat qilish yoshida bo'lgan aholi tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksiga binoan mehnat resurslarining 55 yosh deb qabul qilingan. Bu chegaralarni belgilashda aholining turmush darajasi, sog'liqni saqlash, sport va maorif tizimi, pensiya ta'minoti sharoitlari,

Statistik ko'rsatkichlarga keladigan bo'lsak O'zbekistonning turli viloyatlari bo'yicha YaIM o'sishi 2022-yilda o'rtacha 5,7% ni tashkil etgan, bu esa hududiy islohotlarning ijobiy samarasini ko'rsatadi. Aholi turmush darajasi bo'yicha qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi tafovut 12% ni tashkil etib, infratuzilma modernizatsiyasiga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xalqaro indekslar esa "Global Competitiveness Index" ko'rsatkichlari O'zbekistonning hududiy infratuzilmasi va mehnat bozoridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. UNDP tomonidan e'lon qilinadigan "Inson rivojlanishi indeksi" O'zbekistonda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi ijobiy o'zgarishlarni tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi 2020-2024 yillar davomida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan edi. Quyida ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning natijalari statistik tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Asosiy islohotlar yo'nalishlari hududiy rivojlanish dasturlari, infratuzilma loyihalari, ijtimoiy soha rivoji, statistik tahlil, yalpi hududiy mahsulot (yahm) o'sishi bandlik darajasi, infratuzilma loyihalari shular jumlasidandir.

Hududiy rivojlanish dasturlari. Har bir viloyat va tuman uchun alohida rivojlanish dasturlari ishlab chiqildi, bu dasturlar mahalliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Infratuzilma loyihalari. Yo'l, suv ta'minoti, elektr energiyasi va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirildi.

Ijtimoiy soha rivoji. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi.

Statistik Tahlil. Quyida 2020-2024 yillar davomida amalga oshirilgan islohotlarning ayrim asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.



Qolaversa, rivojlanish dasturlari hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirishda muhim rol o'ynadi. Misol uchun, qishloq joylarda ichimlik suvi va energiya ta'minoti bo'yicha ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Xulosa va takliflar. 2020-2024 yillarda O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida quyidagi muhim yutuqlarga erishildi. Barqaror iqtisodiy o'sishga Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) o'sish sur'atlari barqarorlikni saqlab qoldi, barcha hududlarda iqtisodiy faoliyatning kengayishi kuzatildi. Toshkent, Samarqand va boshqa hududlar iqtisodiyotida ijobiy tendensiyalar qayd etildi. Bandlik darajasi oshdi. Ishsizlik darajasi sezilarli darajada kamayib, bandlik darajasi 2020 yildagi 60.5% dan 2024 yilda 63.0% ga yetdi. Bu qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratilishi natijasida amalga oshirildi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari orqali infratuzilma sezilarli darajada yangilandi. Transport, ichimlik suvi va energiya ta'minotiga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ijtimoiy soha rivojlandi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari sezilarli darajada rivojlanib, maktab va shifoxonalar soni ortdi, shifokorlar va pedagoglarning malakasi oshirildi. Hududiy farqlarning qisqardi. Iqtisodiy rivojlanish dasturlari qishloq va shaharlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishda muhim rol o'ynadi. Bu holat hududlarning resurslardan teng foydalanishini ta'minlashga zamin yaratdi.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish kerak. Hududlarni rivojlantirish jarayonida raqamli platformalardan keng foydalanish zarur. Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish aholini davlat xizmatlariga oson kirish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish lozim. Aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga ko'rsatilayotgan yordam hajmini oshirish va ushbu yordamning manzilliligini yaxshilash kerak. Bu orqali qashshoqlik darajasini yanada kamaytirish mumkin.

Mahalliy iqtisodiyotlarni qo'llab-quvvatlash ham juda muhim hisoblanadi. Hududiy rivojlanish dasturlarida kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish kerak. Bu bandlik va daromadlarni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor qaratish zarur. Hududlarni rivojlantirish jarayonida ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha maxsus dasturlarni amalga oshirish lozim.



Tahlil va monitoring tizimini kuchaytirish kerak. Har bir islohotning natijalarini aniq o'lchash va baholash uchun zamonaviy monitoring tizimlarini joriy qilish kerak. Bu yangi tashabbuslarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Hududlararo integratsiyani rivojlantirish orqali esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash orqali milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

1. Мирзаев Ш.А. «Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики» (на материалах Узбекистана) // автореферат дис., Ташкент-2006, с. 8.
2. Абдуллаев И С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишнинг механизмларини такомиллаштириш. Иқт.фан.бўйича док. (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 0 , 66 б
3. Ахмедов Т М Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана Ташкент Фан С 8
4. Худайберганов А. Тадбиркорликда ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. –Тошкент, 2004. -№5-6. -Б. 10-12
5. Алиқориев Н.С., Агзамходжаев И., Каюмов У.К., Маҳкамов Г.О. Информацион-ная технология в системе управления процессами занятости//Вопросы модели-рования и информатизации экономики.-Ташкент: НПО “Кибернетика” АН Руз. -1992. -вып.4.-С.150-157.
6. F.E.Qodirov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini statistik tahlili. Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali maxsus soni 1739-1747 betlar 2024-yil (OAK Rayosatining Qarori (29.12.2023 й №347/5)
7. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ekonometrik tahlili. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. ISSN 2091-573X 2024-5/2 (08.00.00; №21).
8. F.E.Qodirov. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini vaziyatli tahlil qilish hamda prognoz qilish sxemasi. “Agro ilm” ilmiy-amaliy jurnali № 3-son [100], 2024, ISSN 2091-5616 (08.00.00; №15).
9. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish metodologiyasi. "Kesh ziyosi" nomli ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali 1-soni. 2024/1



10. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish - hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish. Agro ilm" Maxsus soni ilmiy-amaliy jurnali № 4-son [102], 2024, ISSN 2091-5616 (08.00.00; №15)
11. F.E.Qodirov. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari. AKTUAR MOLIIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI 2024, 4(09), 178-183. (08.00.00; 2024 yil 31 yanvardagi 350-son qarori)
12. Алиқориева А.Н. Моделирование движения рабочей силы в условиях рыночной экономики //Вопросы моделирования и информатизации экономики.-Ташкент: НПО "Кибернетика" АН Руз.-1992. –вып. 4. -С.110-117.
13. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." E3S Web of Conferences. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
14. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 9 (2016): 71-73.
15. 3.Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace (2014): 193-200.
16. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. 2021.
17. СОХИБОВ, Акрам. "ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ." PEDAGOGIK MANORAT: 27.
18. Soxibov, A. R. "PEDAGOGIK MADANIYAT VA UNING TARKIBIY QISMLARI: AR Soxibov, Qarshi DU dotsenti." Научно-практическая конференция. 2021.
19. Сохибов, Акрам Рустамович. "ТИПЫ И ЭТАПЫ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 3 (2015): 102-104.

